

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**“JASORAT MAKTABLARI”GA NOMZODLARNI QABUL IMTIHONI
MATERIALLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

“JASORAT MAKTABLARI”GA NOMZODLARNI QABUL IMTIHONI
MATERIALLARI SPETSIFIKATSIYASI
5-SINF 2026/2027-o‘quv yili

Mazkur spetsifikatsiya 5-sinfga qabul qilinadigan o‘quvchilarni imtihondan o‘tkazish, sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning matematika fani bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va qobiliyatlarini kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida maktabga qabul qilinadigan qarorlar valid (asoslangan) bo‘lishini ta‘minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta‘minlanadi.

II. Me‘yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbari va “Jasorat maktablari” faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 3-noyabrdagi 688-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab -internatiga o‘quvchilarni saralab olish va qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom.

III. Baholash qamrovi

Imtihon savollarining har bir varianti 20 ta matematika faniga, 10 ta mantiqiy fikrlashga, 20 ta ona tili faniga oid bitta muqobil javobga ega bo‘lgan test topshiriqlaridan iborat. Test topshiriqlari uchun 100 daqiqa vaqt beriladi.

1-jadval

Matematika fanidan baholanadigan ko‘nikmalar taqsimoti

Mazmun soha	Bilish	Qo‘llash	Mulohaza
Sonlar va amallar		4	2
Algebraik mulohaza	1		
Geometriya va o‘lchashlar	1		2
Ehtimollik nazariyasi va ma‘lumotlar bilan ishlash		2	
Jami:		1	

2-jadval

Ona tili fanidan baholanadigan ko'nikmalar taqsimoti

Mazmun soha	Bilish	Qo'llash	Mulohaza
Fonetika va imlo	2	2	
Leksikologiya	1	2	1
So'z tarkibi.		1	1
Morfologiya		1	1
Tinish belgilari	1		
Matnni tushunish		4	3
Jami:	4	10	6

3-jadval

Matematika topshiriqlarida baholanadigan ko'nikmalar

Mazmun sohalari	Konstruktlar	Savol soni
Sonlar va amallar	<p>Ko'p xonali sonlar ustida 4 amalga doir hisoblashda amallar tartibi algoritmini qo'llay olish.</p> <p>10, 5, 2, 3, 9, 4-sonlariga bo'linish alomatlarini ajrata olish.</p> <p>Tengsizlik yechimining oralig'ini aniqlay olish.</p> <p>Hisoblashga doir amaliy masalalarni yechishda fikrlarni izohlash va asoslay olish.</p> <p>Kasrlarning qiymatini aniqlab, ularni modellarda, son o'qida tasvirlay olish.</p> <p>Oddiy kasrlarni qo'shish va ayirishda amallar xossalarini qo'llay olish.</p> <p>Oddiy kasrlarning qo'shish va ayirish qoidalarini qo'llay olish, amaliy muammolarni hal qilishda asoslay olish.</p> <p>Sonning qismini topishga doir bir necha bosqichli matnli masalalarni yecha olish.</p>	8 ta

Algebraik mulohaza	<p>Koeffitsiyenti birdan farqli bo'lgan bir necha amalli chiziqli tenglamalarning ildizini topa olish.</p> <p>Foiz qatnashgan amaliy vaziyatlarga doir masalalarni yechishda tahlil qilish, mos qoidalarni qo'llash va xulosa chiqara olish.</p> <p>Qismiga ko'ra sonni o'zini topishga doir bir necha bosqichli matnli masalalarni yecha olish.</p> <p>Quvish va kechikish harakatiga doir nostandart masalalarni yechishda vaziyatni baholash, tahlil qilish va xulosa chiqara olish.</p>	4 ta
Geometriya va o'lchashlar	<p>Berilgan o'lchov birligini boshqa o'lchov birligiga aylantirish va aksincha.</p> <p>Qo'shni burchaklarning kattaligini berilgan munosabat va shartga ko'ra aniqlay olish.</p> <p>To'rtburchak, uchburchak perimetrini topishga oid bir necha bosqichli masalalarni yecha olish.</p> <p>To'rtburchak yuzini topishga oid bir necha bosqichli masalalarni yechishda sodda shakl yuzini topish qoidalarini qo'llay olish.</p> <p>To'g'ri burchakli uchburchak yuzini topishga oid bir necha bosqichli masalalarni yechishda to'g'ri to'rtburchak yuzini topish qoidalarini qo'llay olish.</p> <p>Murakkab shakl perimetrini topishga oid bir necha bosqichli masalalarni yechishda sodda shakl perimetrini topish qoidalarini qo'llay olish.</p>	6 ta
Ehtimollik nazariyasi va ma'lumotlar bilan ishlash	<p>To'plamlarga oid matnli masalalarni yechishda Venn diagrammasidan foydalanish, umumlashtirish va farqlay olish.</p> <p>Kombinatorikaga oid amaliy masalalarni yechishda qo'shish va ko'paytirish qonunlaridan asosli ravishda foydalanish, tahlil qilish va xulosa chiqara olish.</p>	2 ta

4- jadval

Mantiqiy fikrlash topshiriqlarida baholanadigan ko'nikmalar

Mazmun sohalari	Baholanadigan ko'nikma	Savol soni
Fazoviy fikrlash	<p>Shakllarning aylanishi, geometrik hajmli va yassi shakllarning fazoda joylashishini aniqlash.</p> <p>Obyektlar o'rtasidagi munosabat va bog'liqliklar, obyektlarning muhim belgi va xususiyatlari aniqlash.</p>	2 ta

Abstrakt mantiqiy fikrlash	Tasavvurda shakl va obyektlarni muayyan burchakka soat yo‘nalishi bo‘ylab va unga qarshi aylantirish bo‘yicha mulohaza qilish. Amalga oshirilgan harakatlar ketma-ketligini aniqlash. Obyektlarning joylashuvi ketma-ketligini aniqlash. Keltirilgan namuna asosida tasvirlarning simmetrik shaklni aniqlash.	4 ta
Verbal mantiqiy fikrlash	Sonlar qatorida raqamlar mantiqiy ketma-ketligining xususiyatlarini aniqlash. Tushunchalar, predmetlar o‘rtasidagi mantiqiy qonuniyatlarini o‘rnata olish. Ketma-ketliklarning mantiqiy qonuniyatlarini aniqlash; Tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini birlashtiruvchi xususiyatlarini ajrata olish.	4 ta

5- jadval

Ona til fanidan topshiriqlarda baholanadigan ko‘nikmalar

Mazmun sohalari	Konstruktlar	Savol soni
Fonetika va imlo	Nutq tovushlari va harflarni farqlash. Unli va undosh tovushlarni tasniflash. Tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zarni aniqlab, turiga ko‘ra ajratish. Bo‘g‘in va uning turlarini farqlash. To‘g‘ri yozilgan so‘zlarni aniqlash.	4 ta
Leksikologiya	Matndagi notanish so‘z(lar)ni matn mazmuni asosida tushunish. So‘zlarning atash ma’nolarini aniqlash. Omonim, sinonim, paronim, antonim so‘zlarni farqlay olish. Iboralarning mazmunini izohlay olish.	4 ta
So‘z tarkibi	So‘zlarni ma’noli qismlarga ajratish. Sodda yasama so‘zlarni aniqlash. Qo‘shma, juft va takroriy so‘zlarni farqlay olish.	3 ta
Morfologiya	Gapdan mustaqil so‘z turkumlarini ajratish.	2 ta

	Mustaqil so‘z turkumlarining o‘zaro farqini aniqlay olish.	
Tinish belgilari	Matndan tushirib qoldirilgan tinish belgilarining o‘rnini aniqlay olish.	1 ta
Matnni o‘qib tushunish	Matnda voqea-hodisalarning ketma-ketligi bilan tartiblay olish. Matnning asosiy g‘oyasini aniqlash. Matndagi fakt(lar)ni fikr(lar)dan ajratish. Matn mazmuniga oid xulosalar asosida mulohaza yuritish. Matndagi muammolarning kelib chiqish sababini aniqlash.	5 ta

IV. Baholash mezon

Test topshiruvchining umumiy ballini (raw score) hisoblash uchun har bir to‘g‘ri javob uchun 1 ball, noto‘g‘ri javob uchun 0 ball beriladi. Test uchun maksimal ball 50 ballni tashkil qiladi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, test topshiriqlari mazmuni quyida tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyillar va yondashuvlar bilan moslashtiriladi. Nomzodlar mazkur adabiyotlar mazmunini yodlash orqali yuqori ball olishni kutmasliklari kerak. Tavsiya etilgan adabiyotlar malaka sinovlariga tayyorgarlik ko‘rish manbayi sifatida xizmat qiladi.

- 1.Repyova I. V: “Matematika” darslik 4-sinf Toshkent :. “Novda” 2023y
- 2 . M.E.Toirova D.D.Boynazarova “Ona tili: darslik 3-sinf Toshkent:.. “Novda” 2023
3. M.E.Toirova D.D.Boynazarova “Ona tili: darslik 4-sinf Toshkent:.. “Novda” 2023

Qo‘shimcha adabiyot:

1. Mirzaahmedov M.A: “Matematikadan masalalar to‘plami” 4-sinf Toshkent: ZUKKO KITOBXON nashiriyot-matbaa uyi, 2024-y.